OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI
ANDIJAN MACHINE-BUILDING INSTITUTE
АНДИЖАНСКИЙ МАШИНОСТРОИТЕЛЬНЫЙ ИНСТИТУТ

“OLIY MATEMATIKA” KAFEDRASI

OLIY MATEMATIKADAN MISOL VA MASALALAR TO’PLAMI
(1-qism)

Andijon – 2019

«TASDIQLAYMAN»

Andijon mashinasozlik instituti

Ilmiy - uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan

Kengash raisi ________________________________Q.Ermatov

«_______» bayonnoma «_______»________ 2019 yil.

«MA'QULLANGAN»

«Transport va logistika» fakulteti

Kengashida muhokama qilingan va ma'qullangan

Kengash raisi ______________________________A.Ermatov

«_______» bayonnoma «_______»_________2019 yil.

«TAVSIYA ETILGAN»

«Oliy matematika» kafedrasi

majlisida muhokama qilingan va tavsiya etilgan

Kafedra mudiri___________________________Z.E.Qodirov

Kafedra majlisining _____- sonli bayonnomasi "____ "____" 2019 yil.

Taqrizchilar: f.-m.f.n., dotsent A. Davlatov,

f.-m.f.n., dotsent M.Xalilov.

Tuzuvchilar: f.m.f.n., dotsent T.A.Djalilova, katta o'qituvchilar Z.E.Qodirov, A.Djabborov.

AndMI - 2019 yil.

KIRISH

Hozirgi kunda ilmiy-texnika taraqqiyoti sharoitida oliy o'quv yurtlarida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash borasida tabiiy fanlar, jumladan matematika faniga katta ahamiyat berilmoqda.

Umumiy muhandislik maxsus fanlari ana shu fanlar asosida qurilib, bu kurslar mutaxassis o'zining amaliy faoliyatida zarur bo'lgan bilimlarni egallashga imkon beradi.

E'tiboringizga havola qilinayotgan mazkur o'quv qo'llanma oliy o'quv yurtlarining muhandis-texnik mutaxassisligi bo'yicha tasdiqlangan oliy matematika kursi o'quv dasturining CHiziqli algebra, CHiziqli tenglamalar sistemasi, Vektorlar, Analitik geometriya elementlari va differensial hisob elementlari asosida tuzilgan.

O'quv qo'llama 6 ta bobdan iborat bo'lib, har qaysi bob uchun qisqacha nazariy ma'lumot bayon qilinib, bob so'ngida misol va masalalar berilgan. SHu bilan birgalikda talabalar mustaqil ishlashlari uchun har biriga alohida variantlar berilgan. (Bunda talabaning guruh jurnalidagi nomeri uning uchun variant nomeri bo'lishi mumkin.)

Bu uslubiy qo'llanma texnika oliy o'quv yurtlari talabalari uchun mo'ljallangan.

MUNDARIJA

CHIZIQLI ALGEBRA

1-§. Matritsalar va ular ustida amallar.

1-ta'rif. Sonlarning m ta satr va n ta ustundan iborat to'g'ri to'rtburchak shaklida, jadval ko'rinishida yozilishi $m\,x\,n$ o'lchovli ***matritsa*** deyiladi va quyidagicha belgilanadi:

$$A = \begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} \ \cdots & a_{1n} \\ a_{21} & a_{22} \cdots & a_{2n} \\ \cdots & \cdots & \cdots \\ a_{m1} & a_{m2} \cdots & a_{mn} \end{pmatrix} \qquad (1)$$

yoki $A = (a_{ij}), i = 1, m; j = 1, n.$

Bu yerda m satrlar soni, n ustunlar soni.

Bu matritsadagi a_{ij}, ($i = 1, m; j = 1, n$) sonlar uning ***elementlari*** deyiladi.

2-ta'rif. Agar $m = 1$ bo`lsa, ***satr matritsa***; $A = (a_{11} \quad a_{12} \quad \cdots \quad a_{1n})$, agar $n = 1$ bo`lsa, ***ustun matritsa***; $A = \begin{pmatrix} a_{11} \\ a_{21} \\ \cdots \\ a_{m1} \end{pmatrix}$ deyiladi.

3-ta'rif. Agar m = n bo`lsa, ***kvadrat matritsa***, n uning tartibi deyiladi.

$$A = \begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} \ \cdots & a_{1n} \\ a_{21} & a_{22} \cdots & a_{2n} \\ \cdots & \cdots & \cdots \\ a_{n1} & a_{n2} \cdots & a_{nn} \end{pmatrix} \qquad (2)$$

Kvadrat matritsaning $a_{11}, a_{22}, \ \ldots \ , a_{nn}$ elementlari joylashgan diagonal ***bosh diagonal***, $a_{1n}, a_{2n-1}, \ldots, a_{n1}$ elementlari joylashgan diagonal ***yordamchi diagonal*** deyiladi.

4-ta'rif. Bosh diagonal elementlari noldan farqli, qolgan elementlari nolga teng bo'lgan matritsa, ***diagonal matritsa*** deyiladi.

$$A = \begin{pmatrix} a_{11} & 0 & \ldots & 0 \\ 0 & a_{22} & \ldots & 0 \\ \cdots & & \cdots & \cdots \\ 0 & 0 & \ldots & a_{nn} \end{pmatrix} \qquad (3)$$

5-ta'rif. Bosh diagonal elementlari 1 ga teng bo'lgan diagonal matritsa, ***birlik matritsa*** deyiladi va E harfi bilan belgilanadi.

$$E=\begin{pmatrix}1 & 0 & \dots & 0\\ 0 & 1 & \dots & 0\\ \dots & \dots & \dots & \dots\\ 0 & 0 & \dots & 1\end{pmatrix} \qquad (4)$$

Agar $a_{ij}=a_{ji}$ bo`lsa, matritsa ***simmetrik*** deyiladi.

$A=\begin{pmatrix}a_{11} & a_{12} & \dots & a_{1n}\\ a_{21} & a_{22} & \dots & a_{2n}\\ \dots & \dots & & \dots\\ a_{m1} & a_{m2} & \dots & a_{mn}\end{pmatrix}$ $va\ B=\begin{pmatrix}b_{11} & b_{12} & \dots & b_{1n}\\ b_{21} & b_{22} & \dots & b_{2n}\\ \dots & \dots & & \dots\\ b_{m1} & b_{m2} & \dots & b_{mn}\end{pmatrix}$ matritsalar berilgan bo'lsin.

6-ta'rif. Agar ***A*** va ***B*** matritsalarning o'lchovlari o'zaro teng bo'lsa, ular ***nomdosh*** matritsalar deyiladi.

7-ta'rif. A matritsaning har bir a_{ij} elementi V matritsaning unga mos b_{ij} elementiga teng bo`lsa, bu ikki nomdosh matritsalar ***teng*** deyiladi va $A=B$ kabi yoziladi.

Faqat nomdosh matritsalargina teng bo`lishi mumkin.

Nomdosh bo`lmagan matritsalar umuman ***tengmas*** deb hisoblanadi.

Matritsalar ustida quyidagi amallarni bajarish mumkin;

a) matritsani songa ko'paytirish;

b)matritsani matritsaga qo`shish (ayirish);

c)matritsani matritsaga ko`paytirish;

a) matritsani songa ko'paytirish;

Biror matritsani songa ko`paytirish uchun, uning har bir elementi shu songa ko`paytiriladi, ya'ni;

$A=\begin{pmatrix}a_{11} & a_{12} & \dots & a_{1n}\\ a_{21} & a_{22} & \dots & a_{2n}\\ \dots & \dots & & \dots\\ a_{m1} & a_{m2} & \dots & a_{mn}\end{pmatrix}$ matritsa va $\lambda -$ixtiyoriy son berilgan.

$$\lambda A=\begin{pmatrix}a_{11} & a_{12} & \dots & a_{1n}\\ a_{21} & a_{22} & \dots & a_{2n}\\ \dots & \dots & & \dots\\ a_{m1} & a_{m2} & \dots & a_{mn}\end{pmatrix}=\begin{pmatrix}\lambda a_{11} & \lambda a_{12} & \dots & \lambda a_{1n}\\ \lambda a_{21} & \lambda a_{22} & \dots & \lambda a_{2n}\\ \dots & \dots & & \dots\\ \lambda a_{m1} & \lambda a_{m2} & \dots & \lambda a_{mn}\end{pmatrix} \qquad (5)$$

b) matritsani matritsaga qo`shish (ayirish);

Ikkita nomdosh A va B matritsalarning ***yig`indisi*** deb, elementlari quyidagicha $c_{ij} = a_{ij} + b_{ij}, (i = 1,m; j = 1,n)$ aniqlanadigan o`sha o`lchamli C matritsaga aytiladi, ya'ni; $C = A + B$

Ikki matritsalarning ***ayirmasi*** ham ularning yig`indisi kabi aniqlanadi va $C = A - B$ kabi yoziladi.

Matritsani matritsaga qo`shish, ayrish va songa ko`paytirish amallari chiziqli amallardir.

8-ta'rif. ***A*** matritsani satr elementlarini ustun, ustun elementlarini satr ko'rinishda yozilishi uni ***transpornirlash*** deyiladi va A^T bilan belgilanadi.

s) Matritsani matritsaga ko`paytirish.

9-ta'rif. $m \times k$ o`lchamli $A$ matritsaning $k \times n$ o`lchamli B matritsaga ***ko`paytmasi*** deb, $m \times n$ o`lchamli shunday $C = (c_{ij})$ $(i = 1,m; j = 1,n)$ matritsaga aytiladiki, uning c_{ij} $(i = 1,m; j = 1,n)$ elementi A matritsa i-satri elementlarini B matritsa j - ustunining mos elementlariga ko`paytmalari yig`indisiga teng, ya'ni

$$c_{ij} = a_{i1}b_{1j} + a_{i2}b_{2j} + \cdots + a_{ik}b_{kj} \qquad (6)$$

Umumiy holda, $AB \neq BA$. Agar $AB = BA$ bo`lsa, u holda $A$ va $B$ matritsalar kommutativlanadigan yoki o`rin almashinadigan deb ataladi.

Misollar.

1. Agar $A = \begin{pmatrix} 1 & 2 & -3 \\ 3 & -1 & 0 \end{pmatrix}$ va $B = \begin{pmatrix} 2 & -3 & 6 \\ 0 & 3 & 5 \end{pmatrix}$ bo'lsa, $2A + B$ ni toping.

2. Agar $A = \begin{pmatrix} 5 & -2 & -3 \\ 0 & -1 & 0 \end{pmatrix}$ va $B = \begin{pmatrix} 12 & -3 & 6 \\ 0 & 3 & 0 \end{pmatrix}$ bo'lsa, $A + 3B$ ni toping.

3. Agar $A = \begin{pmatrix} 0 & 2 & -3 \\ 3 & -11 & 10 \end{pmatrix}$ va $B = \begin{pmatrix} 2 & -3 & 0 \\ 0 & -1 & 5 \end{pmatrix}$ bo'lsa, $A - B$ ni toping.

4. Agar $A = \begin{pmatrix} 2 & 4 \\ 2 & -1 \\ 0 & 1 \end{pmatrix}$ va $B = \begin{pmatrix} 3 & -1 \\ 0 & 5 \\ 6 & 7 \end{pmatrix}$ bo'lsa, $A + 3B$ ni toping.

5. Agar $A = \begin{pmatrix} 0 & 1 \\ 2 & -1 \\ 0 & 4 \end{pmatrix}$ va $B = \begin{pmatrix} 6 & -2 \\ 0 & 5 \\ 0 & 7 \end{pmatrix}$ bo'lsa, $5A - B$ ni toping.

6. Agar $A = \begin{pmatrix} 1 & -2 & 0 \\ 3 & 2 & -1 \\ 3 & 6 & -6 \end{pmatrix}$ va $B = \begin{pmatrix} 0 & 4 & 2 \\ -4 & -3 & 1 \\ 3 & 6 & 7 \end{pmatrix}$ bo'lsa, $A + 2B$ ni toping.

7. Agar $A = \begin{pmatrix} 1 & -2 & 0 \\ 3 & 7 & -1 \\ 3 & 0 & -1 \end{pmatrix}$ va $B = \begin{pmatrix} 0 & 0 & 2 \\ -2 & -3 & 1 \\ 3 & -1 & 10 \end{pmatrix}$ bo'lsa, $3A - B$ ni toping.

8. Agar $A = \begin{pmatrix} 1 & 3 \\ 7 & -1 \\ 3 & 6 \end{pmatrix}$ va $B = \begin{pmatrix} 0 & 4 & 2 \\ -4 & -3 & 1 \\ 3 & 6 & 7 \end{pmatrix}$ bo'lsa, $A + B$ ni toping.

9. Agar $A = \begin{pmatrix} 1 & -2 & 0 \\ 3 & 2 & -1 \\ 3 & 6 & -6 \end{pmatrix}$ va $B = \begin{pmatrix} 1 & 1 \\ 1 & -1 \\ 0 & 4 \end{pmatrix}$ bo'lsa, $5A - 2B$ ni toping.

10. Agar $A = \begin{pmatrix} 1 & -2 & 0 \\ 3 & 1 & -1 \\ 0 & 6 & -6 \end{pmatrix}$ va $B = \begin{pmatrix} 1 \\ 3 \\ -5 \end{pmatrix}$ bo'lsa, $-A + 2B$ ni toping.

11. $A = \begin{pmatrix} 1 & 4 \\ -3 & 0 \end{pmatrix}$ va $B = \begin{pmatrix} -6 & 1 \\ 2 & 0 \end{pmatrix}$ ga teng. $A \cdot B$ ni toping.

12. $A = \begin{pmatrix} 0 & 4 \\ -5 & 1 \end{pmatrix}$ va $B = \begin{pmatrix} 1 & 2 & 4 \\ 0 & 5 & -2 \end{pmatrix}$ ga teng. $A \cdot B$ ni toping.

13. $A = \begin{pmatrix} 3 & 1 \\ -3 & 0 \end{pmatrix}$ va $B = \begin{pmatrix} 1 & 2 \\ 3 & -4 \\ 0 & -2 \end{pmatrix}$ ga teng. $A \cdot B$ ni toping.

14. $A = \begin{pmatrix} 5 & 4 \\ 3 & -6 \\ 0 & 1 \end{pmatrix}$ va $B = \begin{pmatrix} -1 & 1 \\ 4 & 0 \end{pmatrix}$ ga teng. $2A \cdot B$ ni toping.

15. $A = \begin{pmatrix} 3 & 0 \\ 1 & -1 \\ 0 & 1 \end{pmatrix}$ va $B = \begin{pmatrix} 1 & 4 & 8 \\ 7 & 0 & 0 \end{pmatrix}$ ga teng. -$3A \cdot B$ ni toping.

16. $A = \begin{pmatrix} 1 & 3 & 8 \\ -5 & -2 & -1 \\ 0 & 1 & 3 \end{pmatrix}$ va $B = \begin{pmatrix} 0 & 2 & 1 \\ 3 & 2 & 0 \\ -1 & 2 & 0 \end{pmatrix}$ ga teng. $A \cdot B$ ni toping.

17. $A = \begin{pmatrix} 1 & 1 & 4 \\ -5 & 0 & -1 \\ 0 & 1 & 0 \end{pmatrix}$ va $B = \begin{pmatrix} 1 & 2 \\ 3 & 5 \\ 0 & -6 \end{pmatrix}$ ga teng. $A \cdot 2B$ ni toping.

18. $A = \begin{pmatrix} 1 & 3 & 7 \\ 1 & -2 & -1 \\ 0 & 1 & 4 \end{pmatrix}$ va $B = \begin{pmatrix} 1 & 2 & 4 \\ 7 & 0 & 6 \end{pmatrix}$ ga teng. $3A \cdot B$ ni toping.

19. $A = \begin{pmatrix} 1 & 3 & 5 \\ 0 & -2 & 3 \\ 0 & 1 & 3 \end{pmatrix}$ va $B = \begin{pmatrix} 6 \\ 3 \\ 0 \end{pmatrix}$ ga teng. $7A \cdot B$ ni toping.

20. $A = (2 \quad 3 \quad 1)$ va $B = \begin{pmatrix} 0 & 2 & 1 \\ 3 & 2 & 1 \\ -1 & 2 & 0 \end{pmatrix}$ ga teng. $A \cdot B$ ni toping.

Mustaqil yechish uchun misollar.

C matritsani toping:

1. $C = A^T B - 2B^T$, $A = \begin{pmatrix} 2 & 3 \\ 1 & 2 \end{pmatrix}$, $B = \begin{pmatrix} 1 & -1 \\ 1 & 1 \end{pmatrix}$.

2. $C = AB^T - A^T$, $A = \begin{pmatrix} 3 & 5 \\ 6 & -1 \end{pmatrix}$, $B = \begin{pmatrix} 2 & -3 \\ 1 & 2 \end{pmatrix}$.

3. $C = AB + 4A$, $A = \begin{pmatrix} 1 & 2 & 3 \\ 2 & 4 & 6 \\ 3 & 6 & 9 \end{pmatrix}$, $B = \begin{pmatrix} -1 & -2 & -4 \\ -1 & -2 & -4 \\ 1 & 2 & 4 \end{pmatrix}$.

4. $C = A \cdot B^T - 3B$, $A = \begin{pmatrix} 1 & 2 \\ 3 & 4 \end{pmatrix}$, $B = \begin{pmatrix} 5 & 7 \\ 6 & 8 \end{pmatrix}$.

5. $C = A^T B - BA^T$, $A = \begin{pmatrix} 1 & 2 \\ -1 & 3 \end{pmatrix}$, $B = \begin{pmatrix} 5 & 3 \\ 6 & 7 \end{pmatrix}$.

6. $C = A^T B - 4B$, $A = \begin{pmatrix} 3 & 1 & 8 \\ 2 & 4 & 3 \\ 7 & 3 & 4 \end{pmatrix}$, $B = \begin{pmatrix} 2 \\ 3 \\ 6 \end{pmatrix}$.

7. $C = 2A^T B - BA^T$, $A = \begin{pmatrix} 2 & 3 \\ 4 & 7 \end{pmatrix}$, $B = \begin{pmatrix} 5 & 1 \\ 2 & 11 \end{pmatrix}$.

8. $C = (A + B)(2B - A)$, $A = \begin{pmatrix} 2 & 3 & -1 \\ 4 & 5 & 2 \\ -1 & 0 & 7 \end{pmatrix}$, $B = \begin{pmatrix} -1 & 0 & 5 \\ 0 & 1 & 3 \\ 2 & -2 & 4 \end{pmatrix}$.

9. $C = (B + AB)^T$, $A = \begin{pmatrix} 2 & 1 \\ 3 & 2 \end{pmatrix}$, $B = \begin{pmatrix} 1 & -1 \\ 1 & 1 \end{pmatrix}$.

10. $C = (A - BA)^T$, $A = \begin{pmatrix} 2 & 1 \\ -3 & 2 \end{pmatrix}$, $B = \begin{pmatrix} 3 & 5 \\ 6 & -1 \end{pmatrix}$.

11. $C = B - A \cdot A^T$, $A = \begin{pmatrix} 3 & 2 & 1 & 2 \\ 4 & 1 & 1 & 3 \end{pmatrix}$, $B = \begin{pmatrix} 20 & 19 \\ 18 & 17 \end{pmatrix}$.

12. $C = (AB + BA)^T$, $A = \begin{pmatrix} 5 & 3 \\ 6 & 7 \end{pmatrix}$, $B = \begin{pmatrix} 1 & -1 \\ 2 & 3 \end{pmatrix}$.

13. $C = A^T B - 2B^T, \quad A = \begin{pmatrix} 5 & 7 \\ 6 & 8 \end{pmatrix}, \quad B = \begin{pmatrix} 11 & 16 \\ 15 & 20 \end{pmatrix}.$

14. $C = 2A(A - B)^T, \quad A = \begin{pmatrix} 3 & 2 \\ 0 & 4 \end{pmatrix}, \quad B = \begin{pmatrix} 1 & -6 \\ -7 & -5 \end{pmatrix}.$

15. $C = 3B - B^T A^T, \quad A = \begin{pmatrix} 5 & 2 \\ 1 & 11 \end{pmatrix}, \quad B = \begin{pmatrix} 2 & 3 \\ 4 & 7 \end{pmatrix}.$

16. $C = AB^T + A, \quad A = \begin{pmatrix} 1 & 2 & 3 \\ 4 & 5 & 6 \end{pmatrix}, \quad B = \begin{pmatrix} 3 & 4 & 2 \\ 2 & 1 & 3 \\ 1 & 3 & 0 \end{pmatrix}.$

17. $C = A^T(B + A), \quad A = \begin{pmatrix} 2 & 3 \\ 1 & 2 \end{pmatrix}, \quad B = \begin{pmatrix} -1 & -4 \\ 0 & -1 \end{pmatrix}.$

18. $C = (A - B)B^T, \quad A = \begin{pmatrix} 5 & 2 \\ 7 & 1 \end{pmatrix}, \quad B = \begin{pmatrix} 2 & -3 \\ 1 & 2 \end{pmatrix}.$

19. $C = (B^T + A)^3, \quad A = \begin{pmatrix} 1 & -2 \\ -1 & -1 \end{pmatrix}, \quad B = \begin{pmatrix} 1 & 2 \\ 3 & 4 \end{pmatrix}.$

20. $C = (A + 3B)^T B, \quad A = \begin{pmatrix} 2 & 1 \\ -3 & -4 \end{pmatrix}, \quad B = \begin{pmatrix} 1 & 2 \\ 3 & 4 \end{pmatrix}.$

21. $C = 3A - 2B^T A^T, \quad A = \begin{pmatrix} 5 & 6 \\ 3 & 7 \end{pmatrix}, \quad B = \begin{pmatrix} 1 & 2 \\ -1 & 3 \end{pmatrix}.$

22. $C = (A + 3B^T)B, \quad A = \begin{pmatrix} -3 & -22 \\ -21 & -23 \end{pmatrix}, \quad B = \begin{pmatrix} 2 & 7 \\ 8 & 9 \end{pmatrix}.$

23. $C = 2A(B - A^T), \quad A = \begin{pmatrix} 5 & 1 \\ 2 & 11 \end{pmatrix}, \quad B = \begin{pmatrix} 7 & 6 \\ 4 & 18 \end{pmatrix}.$

24. $C = A^T \cdot B - 3B, \quad A = \begin{pmatrix} 1 & 4 & 7 \\ 2 & 5 & 8 \\ 3 & 6 & 9 \end{pmatrix}, \quad B = \begin{pmatrix} 1 \\ 2 \\ 3 \end{pmatrix}.$

25. $C = (AB - BA)^T, \quad A = \begin{pmatrix} 1 & 2 \\ 3 & 4 \end{pmatrix}, \quad B = \begin{pmatrix} 5 & 6 \\ 7 & 8 \end{pmatrix}.$

26. $C = (A - 2B)B^T, \quad A = \begin{pmatrix} 2 & 4 & 1 \\ 5 & 1 & -3 \\ 7 & 1 & 0 \end{pmatrix}, \quad B = \begin{pmatrix} 4 & 3 & -1 \\ -4 & 0 & 0 \\ 7 & -3 & -1 \end{pmatrix}.$

27. $C = (A + 3B)(A + B), \quad A = \begin{pmatrix} 2 & 4 & 1 \\ 5 & 1 & -3 \\ -5 & 1 & 0 \end{pmatrix}, \quad B = \begin{pmatrix} 3 & 0 & -1 \\ -5 & 2 & 1 \\ 1 & -3 & -1 \end{pmatrix}.$

28. $C = AB - 4B, \quad A = \begin{pmatrix} 2 & 4 & 1 \\ 4 & -4 & -3 \\ 0 & 1 & 0 \end{pmatrix}, \quad B = \begin{pmatrix} 6 & -4 \\ 5 & 0 \\ 3 & -3 \end{pmatrix}.$

29. $C = (A - 2B)(A + B), \quad A = \begin{pmatrix} 2 & -3 & 1 \\ 5 & 4 & -3 \\ 0 & 1 & -6 \end{pmatrix}, \quad B = \begin{pmatrix} 1 & 10 & -1 \\ -4 & 4 & 5 \\ -2 & 3 & 4 \end{pmatrix}.$

30. $C = (A + 3B)B^T$, $A = \begin{pmatrix} 1 & 1 & 2 \\ 3 & 4 & 2 \\ 5 & 3 & 4 \end{pmatrix}$, $B = \begin{pmatrix} -1 & 2 & 3 \\ -2 & 1 & 1 \\ -3 & 8 & 2 \end{pmatrix}$.

2-§. Determinantlar.

1-ta'rif. Ikkinchi tartibli kvadrat matritsaga mos keluvchi ***ikkinchi tartibli determinant*** deb, quyidagi belgi va tenglik bilan aniqlanuvchi songa aytiladi:

$$\begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} \\ a_{21} & a_{22} \end{vmatrix} = a_{11}a_{22} - a_{12}a_{21} \qquad (1)$$

Xuddi shunga o'xshash, uchinchi tartibli determinant deb, quyidagi songa aytiladi:

$$\begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} & a_{13} \\ a_{21} & a_{22} & a_{23} \\ a_{31} & a_{32} & a_{33} \end{vmatrix} = a_{11}a_{22}a_{33} + a_{12}a_{23}a_{31} + a_{21}a_{32}a_{13} -$$

$$-a_{13}a_{22}a_{31} - a_{23}a_{32}a_{11} - a_{12}a_{21}a_{33}. \qquad (2)$$

Bu "uchburchak qoidasi" deyiladi. Osonroq eslab qolish uchun hisoblash shaklini keltiramiz;



2-ta'rif. Determinantning ixtiyoriy a_{ij} $(i = 1,n; j = 1,n)$ elementining ***minori*** deb, shu element turgan satr va ustunni o'chirish natijasida hosil bo'lgan, tartibi bittaga kamaygan determinantga aytiladi va M_{ij} $(i = 1,n; j = 1,n)$ bilan belgilanadi. Determinant a_{ij} $(i = 1,n; j = 1,n)$ elementining ***algebraik to'ldiruvchisi*** $A_{ij} = (-1)^{i+j}M_{ij}$ formula bilan aniqlanadi, ya'ni u minorning ishorasini aniqlaydi. Bu formula $n \geq 3$ bo'lgandagi determinantlarni tartibini pasaytirib hisoblashda qo'llaniladi.

Xosalari.

1^0. Agar determinant transpornirlansa, uning qiymati o'zgarmaydi.

2^0. Agar determinantning ixtiyoriy satr (ustun) elementlari nollardan iborat bo'lsa, uning qiymati nolga teng bo'ladi.

3^0. Agar determinantning ixtiyoriy ikkita satr (ustun) elementlari o'rinlari almashtirilsa, uning qiymati qarama-qarshisiga o'zgaradi.

4^0. Agar determinantning ixtiyoriy ikkita satr (ustun)i bir xil elementlardan tashkil topgan bo'lsa, uning qiymati nolga teng bo'ladi.

5^0. Determinantning ixtiyoriy satr (ustun) elementlaridan umumiy ko'paytuvchini determinant belgisidan tashqariga chiqarish mumkin.

6^0 .Agar determinantning ixtiyoriy ikkita satr (ustun) elementlari proportsional bo`lsa, uning qiymati nolga teng bo`ladi.

7^0. Agar determinantning biror satr (ustun) elementlari ikkita qo`shiluvchining yig`indisidan iborat bo`lsa, u holda bu determinant qiymati quyidagi ikkita determinantlarning yig`indisiga teng bo'ladi, ya'ni

$$\Delta = \begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} + b_1 \\ a_{12} & a_{22} + b_2 \end{vmatrix} = \begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} \\ a_{12} & a_{22} \end{vmatrix} + \begin{vmatrix} a_{11} & b_1 \\ a_{12} & b_2 \end{vmatrix}$$

8^0. Agar determinantning ixtiyoriy satr (ustun) elementlari biror songa ko`paytirilib boshqa satr (ustun) elementlariga qo`shilsa, uning qiymati o`zgarmaydi.

9^0. Determinantning qiymati ixtiyoriy satr (ustun) elementlarini ularning mos algebraik to`ldiruvchilariga ko`paytmalari yig`indisiga teng bo`ladi.

$$|A| = \begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} \dots & a_{1n} \\ a_{21} & a_{22} \dots & a_{2n} \\ \dots & \dots & \dots \\ a_{i1} & a_{i2} \dots & a_{in} \\ \dots & \dots & \dots \\ a_{n1} & a_{n2} \dots & a_{nn} \end{vmatrix} = a_{i1} \cdot A_{i1} + a_{i2} \cdot A_{i2} + \dots + a_{in} \cdot A_{in}$$

yoki

$$|A| = \begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} & \dots & a_{1j} & \dots & a_{1n} \\ a_{21} & a_{22} & \dots & a_{2j} & \dots & a_{2n} \\ \dots & \dots & \dots & \dots & \dots & \dots \\ a_{n1} & a_{n2} & \dots & a_{nj} & \dots & a_{nn} \end{vmatrix} = a_{1j} \cdot A_{1j} + a_{2j} + A_{2j} + \dots + a_{2n} \cdot A_{2n}$$

Bular determinantning tartibini pasaytirib hisoblash formulasi deyiladi.

10^0. Determinantning ixtiyoriy satr (ustun) elementlarini boshqa satr (ustun) elementlarining algebraik to`ldiruvchilariga ko`paytmalari yig'indisi nolga teng bo`ladi.

Misollar.

Determinantlarni hisoblang.

1. $\begin{vmatrix} 1 & -4 \\ 3 & 0 \end{vmatrix}=?$

2. $\begin{vmatrix} 3 & -4 \\ 0 & -8 \end{vmatrix}=?$

3. $\begin{vmatrix} a & b \\ d & 2c \end{vmatrix}=?$

4. $\begin{vmatrix} \sin x & cosx \\ cosx & sinx \end{vmatrix}=?$

5. $\begin{vmatrix} \sin x & -cosx \\ -tgx & ctgx \end{vmatrix}=?$

6. $\begin{vmatrix} 1 & 0 & 3 \\ -4 & 0 & 1 \\ -2 & 2 & 5 \end{vmatrix}=?$

7. $\begin{vmatrix} 1 & 3 & 3 \\ -1 & 0 & 1 \\ 2 & 2 & 0 \end{vmatrix}=?$

8. $\begin{vmatrix} 2 & 0 & 3 \\ 0 & 3 & 1 \\ -2 & 1 & -2 \end{vmatrix}=?$

9. $\begin{vmatrix} 3 & 1 & 6 \\ -3 & 1 & 1 \\ -2 & 0 & 5 \end{vmatrix}=?$

10. $\begin{vmatrix} 1 & 2 & 3 \\ 0 & 7 & 1 \\ 1 & 0 & 5 \end{vmatrix}=?$

11. $\begin{vmatrix} 3 & 0 & 0 \\ -4 & 10 & 0 \\ 0 & 2 & 5 \end{vmatrix}=?$

12. $\begin{vmatrix} sinx & 0 & -cosx \\ 0 & 1 & 0 \\ cosx & 0 & sinx \end{vmatrix}=?$

13. $\begin{vmatrix} 2 & 2 & 0 \\ -3 & 1 & 1 \\ -20 & -3 & -1 \end{vmatrix}=?$

14. $\begin{vmatrix} 5 & 2 & 0 \\ -3 & 1 & 11 \\ -2 & 0 & 1 \end{vmatrix}=?$

15. $\begin{vmatrix} 1 & 1 & 6 \\ 0 & 1 & 1 \\ -2 & 0 & 5 \end{vmatrix}=?$

16. $\begin{vmatrix} 13 & 2 & 0 \\ 0 & 1 & 1 \\ -2 & 0 & 5 \end{vmatrix}=?$

17. $\begin{vmatrix} a & a & a \\ b & b & b \\ 2 & 0 & 1 \end{vmatrix}=?$

18. $\begin{vmatrix} sinx & 0 & 0 \\ -3 & tgx & 0 \\ -1 & 0 & 2 \end{vmatrix}=?$

19. $\begin{vmatrix} e^{x} & 0 & 1 \\ 0 & 1 & 1 \\ 1 & 0 & e^{-x} \end{vmatrix}=?$

20. $\begin{vmatrix} 1 & 2 & 3 \\ -3 & -1 & -2 \\ -2 & 0 & -2 \end{vmatrix}=?$

Determinantlarni tartibini pasaytirish usuli bilan hisoblang.

1. $\begin{vmatrix} 1 & 2 & 4 & 1 \\ 5 & -7 & 0 & 2 \\ 3 & -2 & 1 & 0 \\ 2 & -5 & 0 & 0 \end{vmatrix}=?$

2. $\begin{vmatrix} 0 & 2 & 1 & 5 \\ 5 & -1 & 0 & 2 \\ 3 & -1 & 1 & 0 \\ 4 & -5 & 0 & 0 \end{vmatrix}=?$

3. $\begin{vmatrix} 1 & 2 & 4 & 5 \\ 2 & 0 & 0 & 2 \\ 5 & -2 & 1 & 0 \\ 2 & -5 & 0 & 1 \end{vmatrix} = ?$

4. $\begin{vmatrix} 2 & 2 & 4 & 0 \\ 0 & -7 & 0 & 2 \\ 3 & 0 & 1 & 0 \\ 0 & -5 & 1 & 2 \end{vmatrix} = ?$

5. $\begin{vmatrix} 3 & 2 & 1 & 2 \\ -1 & -7 & 0 & 2 \\ 2 & 0 & 1 & 4 \\ 2 & 0 & 0 & 1 \end{vmatrix} = ?$

6. $\begin{vmatrix} 2 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & -7 & 0 & 0 \\ 5 & -2 & 1 & 0 \\ 2 & -5 & 0 & 3 \end{vmatrix} = ?$

7. $\begin{vmatrix} 3 & 2 & 4 & 5 \\ 5 & -7 & 0 & 2 \\ 3 & -2 & -1 & 1 \\ 2 & -5 & 0 & -3 \end{vmatrix} = ?$

8. $\begin{vmatrix} 5 & 2 & 4 & -1 \\ 0 & -7 & 0 & 2 \\ 3 & -2 & 1 & 0 \\ 2 & 0 & 0 & 0 \end{vmatrix} = ?$

9. $\begin{vmatrix} 1 & 1 & 4 & 5 \\ 1 & -7 & 0 & 1 \\ 0 & -2 & 1 & 0 \\ 2 & -5 & 0 & 0 \end{vmatrix} = ?$

10. $\begin{vmatrix} 3 & 2 & 0 & 5 \\ -1 & -7 & 0 & 2 \\ 3 & -2 & 2 & 0 \\ 2 & -5 & 2 & 0 \end{vmatrix} = ?$

11. $\begin{vmatrix} 2 & 3 & -4 & 0 & 5 \\ 0 & 3 & -1 & 7 & 3 \\ 1 & 2 & 3 & 0 & -2 \\ 2 & 0 & 0 & 3 & 0 \\ 2 & 5 & 0 & -4 & 6 \end{vmatrix} = ?$

12. $\begin{vmatrix} 1 & 2 & 3 & 0 & -1 \\ 5 & 0 & 5 & 7 & 8 \\ 0 & -1 & 2 & 6 & -1 \\ -4 & 1 & 0 & 0 & 7 \\ -3 & 0 & 0 & 8 & 0 \end{vmatrix} = ?$

13. $\begin{vmatrix} 3 & -4 & 0 & 1 & -4 \\ 2 & 0 & -5 & 0 & -2 \\ -5 & 4 & 5 & -1 & 6 \\ 0 & 2 & 3 & 0 & -1 \\ -7 & 0 & 0 & 1 & 0 \end{vmatrix} = ?$

14. $\begin{vmatrix} 4 & 0 & 0 & 8 & 3 \\ 0 & 1 & 2 & 3 & 7 \\ 7 & 0 & 3 & 0 & 0 \\ 7 & -1 & 1 & 0 & 1 \\ 0 & 1 & 2 & 0 & -1 \end{vmatrix} = ?$

Mustaqil yechish uchun misollar.

Determinantlarni hisoblang.

a). Ikkinchi tartibli determinantni hisoblang.

1. $\begin{vmatrix} 2 & -4 \\ 3 & 0 \end{vmatrix} = ?$

4. $\begin{vmatrix} \sin x & cosx \\ -cosx & sinx \end{vmatrix} = ?$

2. $\begin{vmatrix} 6 & -4 \\ 0 & -8 \end{vmatrix} = ?$

5. $\begin{vmatrix} 1 & -2 \\ 6 & 6 \end{vmatrix} = ?$

3. $\begin{vmatrix} a & b \\ d & c \end{vmatrix} = ?$

6. $\begin{vmatrix} 2 & -4 \\ 0 & -18 \end{vmatrix} = ?$

7. $\begin{vmatrix} 1 & -2 \\ -5 & 3 \end{vmatrix} = ?$

8. $\begin{vmatrix} 12 & 2 \\ -3 & 0 \end{vmatrix} = ?$

9. $\begin{vmatrix} 21 & -2 \\ 23 & -1 \end{vmatrix} = ?$

10. $\begin{vmatrix} 4 & 7 \\ -6 & -9 \end{vmatrix} = ?$

11. $\begin{vmatrix} 8 & 9 \\ 10 & 11 \end{vmatrix} = ?$

12. $\begin{vmatrix} -3 & -4 \\ -5 & -6 \end{vmatrix} = ?$

13. $\begin{vmatrix} 1 & 2 \\ 3 & 4 \end{vmatrix} = ?$

14. $\begin{vmatrix} 9 & 2 \\ 3 & 4 \end{vmatrix} = ?$

15. $\begin{vmatrix} 1 & 2 \\ 3 & -4 \end{vmatrix} = ?$

16. $\begin{vmatrix} 1 & 2 \\ -3 & 4 \end{vmatrix} = ?$

17. $\begin{vmatrix} 1 & -12 \\ 6 & 4 \end{vmatrix} = ?$

18. $\begin{vmatrix} 1 & 2 \\ -13 & 4 \end{vmatrix} = ?$

19. $\begin{vmatrix} 1 & -2 \\ 3 & 14 \end{vmatrix} = ?$

20. $\begin{vmatrix} 11 & -2 \\ 3 & 4 \end{vmatrix} = ?$

21. $\begin{vmatrix} 1 & -12 \\ 0 & 4 \end{vmatrix} = ?$

22. $\begin{vmatrix} 1 & 2 \\ 3 & 4 \end{vmatrix} = ?$

23. $\begin{vmatrix} -11 & 2 \\ 3 & 0 \end{vmatrix} = ?$

24. $\begin{vmatrix} 1 & 2 \\ 3 & -7 \end{vmatrix} = ?$

25. $\begin{vmatrix} 11 & 2 \\ 13 & 4 \end{vmatrix} = ?$

26. $\begin{vmatrix} -1 & 12 \\ -3 & 4 \end{vmatrix} = ?$

27. $\begin{vmatrix} 1 & 41 \\ 3 & 4 \end{vmatrix} = ?$

28. $\begin{vmatrix} 7 & 2 \\ 3 & -4 \end{vmatrix} = ?$

29. $\begin{vmatrix} 1 & -12 \\ 5 & 4 \end{vmatrix} = ?$

30. $\begin{vmatrix} 1 & -2 \\ 3 & 14 \end{vmatrix} = ?$

b). Uchinchi tartibli determinantni hisoblang.

1. $\begin{vmatrix} 1 & 2 & 3 \\ -4 & 0 & 1 \\ -2 & 2 & 5 \end{vmatrix} = ?$

2. $\begin{vmatrix} 1 & 2 & 3 \\ -1 & 0 & 1 \\ 2 & 2 & 0 \end{vmatrix} = ?$

3. $\begin{vmatrix} 1 & 8 & 3 \\ -4 & 1 & 1 \\ -2 & 2 & 5 \end{vmatrix} = ?$

4. $\begin{vmatrix} 1 & 2 & 3 \\ -4 & 0 & 1 \\ -2 & 2 & 0 \end{vmatrix} = ?$

5. $\begin{vmatrix} 1 & 2 & 3 \\ 4 & 0 & 1 \\ -2 & 2 & 5 \end{vmatrix} = ?$

6. $\begin{vmatrix} 1 & 0 & 3 \\ -4 & -1 & 1 \\ -2 & 2 & 5 \end{vmatrix} = ?$

7. $\begin{vmatrix} 0 & 2 & 3 \\ -4 & 0 & 1 \\ -2 & 2 & 5 \end{vmatrix} = ?$

8. $\begin{vmatrix} 2 & 2 & 3 \\ 0 & 3 & 1 \\ -2 & 1 & -2 \end{vmatrix} = ?$

9. $\begin{vmatrix} 3 & 2 & 6 \\ -3 & 1 & 1 \\ -2 & 0 & 5 \end{vmatrix} = ?$

10. $\begin{vmatrix} 1 & 2 & 3 \\ 0 & 7 & 1 \\ 0 & 0 & 5 \end{vmatrix} = ?$

11. $\begin{vmatrix} 3 & 0 & 0 \\ -4 & 10 & 0 \\ 0 & 2 & 5 \end{vmatrix} = ?$

12. $\begin{vmatrix} sinx & 0 & cosx \\ 0 & 1 & 0 \\ -cosx & 0 & sinx \end{vmatrix} = ?$

13. $\begin{vmatrix} 23 & 2 & 0 \\ -3 & 1 & 1 \\ -20 & -3 & -1 \end{vmatrix} = ?$

14. $\begin{vmatrix} 5 & 2 & 0 \\ -3 & 1 & 11 \\ -2 & 0 & 0 \end{vmatrix} = ?$

15. $\begin{vmatrix} 1 & 12 & 6 \\ 0 & 1 & 1 \\ -2 & 0 & 5 \end{vmatrix} = ?$

16. $\begin{vmatrix} 13 & 2 & 0 \\ 0 & 1 & 21 \\ -2 & 0 & 5 \end{vmatrix} = ?$

17. $\begin{vmatrix} a & a & a \\ b & b & b \\ 2 & 0 & 5 \end{vmatrix} = ?$

18. $\begin{vmatrix} sinx & 0 & 0 \\ -3 & tgx & 0 \\ -1 & 0 & 1 \end{vmatrix} = ?$

19. $\begin{vmatrix} e^x & 0 & 1 \\ 0 & 1 & 0 \\ 1 & 0 & e^{-x} \end{vmatrix} = ?$

20. $\begin{vmatrix} 1 & 2 & 3 \\ -3 & 1 & -2 \\ -2 & 0 & -2 \end{vmatrix} = ?$

21. $\begin{vmatrix} -1 & 2 & 5 \\ -3 & 1 & -2 \\ -2 & 0 & -2 \end{vmatrix} = ?$

22. $\begin{vmatrix} 11 & 0 & 3 \\ -3 & 1 & -2 \\ -2 & 0 & -2 \end{vmatrix} = ?$

23. $\begin{vmatrix} 1 & 2 & 0 \\ -3 & 1 & -2 \\ -2 & 0 & -2 \end{vmatrix} = ?$

24. $\begin{vmatrix} 1 & -2 & 3 \\ -3 & 5 & -2 \\ -2 & 0 & -2 \end{vmatrix} = ?$

25. $\begin{vmatrix} 1 & -2 & 3 \\ -3 & 1 & -2 \\ -2 & 0 & -4 \end{vmatrix} = ?$

26. $\begin{vmatrix} 11 & 2 & 3 \\ -3 & 0 & -2 \\ -2 & 0 & -2 \end{vmatrix} = ?$

27. $\begin{vmatrix} 10 & 2 & 3 \\ -5 & 1 & -2 \\ -2 & 0 & -2 \end{vmatrix} = ?$

28. $\begin{vmatrix} 1 & 2 & 0 \\ -3 & 1 & -12 \\ -2 & 0 & -2 \end{vmatrix} = ?$

29. $\begin{vmatrix} 10 & 2 & 3 \\ -3 & 11 & -2 \\ -2 & 0 & -2 \end{vmatrix} = ?$

30. $\begin{vmatrix} 1 & 2 & 3 \\ -1 & 7 & -2 \\ -2 & 0 & -2 \end{vmatrix} = ?$

c). Determinantlarni tartibini pasaytirish usuli bilan hisoblang.

1. $\begin{vmatrix} 1 & 2 & 4 & 5 \\ 5 & -7 & 0 & 2 \\ 3 & -2 & 1 & 0 \\ 2 & -5 & 0 & 0 \end{vmatrix} = ?$

2. $\begin{vmatrix} 0 & 2 & 1 & 5 \\ 5 & -7 & 0 & 2 \\ 3 & -1 & 1 & 0 \\ 4 & -5 & 0 & 0 \end{vmatrix} = ?$

3. $\begin{vmatrix} 1 & 2 & 4 & 5 \\ 2 & -7 & 0 & 2 \\ 5 & -2 & 1 & 0 \\ 2 & -5 & 0 & 1 \end{vmatrix} = ?$

4. $\begin{vmatrix} 2 & 2 & 4 & 0 \\ 0 & -7 & 0 & 2 \\ 3 & 0 & 1 & 0 \\ 0 & -5 & 0 & 2 \end{vmatrix} = ?$

5. $\begin{vmatrix} 3 & 2 & 1 & 2 \\ -1 & -7 & 0 & 2 \\ 2 & -5 & 1 & 4 \\ 2 & 0 & 0 & 1 \end{vmatrix} = ?$

6. $\begin{vmatrix} 2 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & -7 & 0 & 0 \\ 3 & -2 & 1 & 0 \\ 2 & -5 & 0 & 3 \end{vmatrix} = ?$

7. $\begin{vmatrix} 3 & 2 & 4 & 5 \\ 5 & -7 & 0 & 2 \\ 3 & -2 & -1 & 1 \\ 2 & -5 & 0 & -3 \end{vmatrix} = ?$

8. $\begin{vmatrix} 5 & 2 & 4 & -1 \\ 0 & -7 & 0 & 2 \\ 3 & -2 & 1 & 0 \\ 2 & 0 & 0 & 0 \end{vmatrix} = ?$

9. $\begin{vmatrix} 1 & 1 & 4 & 5 \\ 1 & -7 & 0 & 1 \\ 0 & -2 & 1 & 0 \\ 2 & -5 & 0 & 0 \end{vmatrix} = ?$

10. $\begin{vmatrix} 3 & 2 & 0 & 2 \\ -1 & -7 & 0 & 2 \\ 3 & -2 & 2 & 0 \\ 2 & -5 & 2 & 0 \end{vmatrix} = ?$

11. $\begin{vmatrix} 1 & 1 & 4 & 5 \\ 5 & -7 & 0 & 2 \\ 3 & -2 & 1 & 0 \\ 2 & -5 & 0 & 0 \end{vmatrix} = ?$

12. $\begin{vmatrix} 0 & 2 & 1 & 1 \\ 5 & -7 & 0 & 2 \\ 1 & -1 & 1 & 0 \\ 4 & -5 & 0 & 0 \end{vmatrix} = ?$

13. $\begin{vmatrix} 1 & 2 & 4 & 5 \\ 2 & 7 & 0 & 2 \\ 5 & -2 & 1 & 0 \\ 2 & 5 & 0 & 1 \end{vmatrix} = ?$

14. $\begin{vmatrix} 2 & 2 & 4 & 0 \\ 0 & 1 & 0 & 2 \\ 3 & 0 & 1 & 0 \\ 0 & -5 & 0 & 2 \end{vmatrix} = ?$

15. $\begin{vmatrix} 3 & 2 & 1 & 2 \\ -1 & 8 & 0 & 2 \\ 2 & -5 & 1 & 1 \\ 2 & 0 & 0 & 1 \end{vmatrix} = ?$

16. $\begin{vmatrix} 2 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 1 & 0 & 0 \\ 3 & -2 & 1 & 0 \\ 2 & -5 & 0 & 3 \end{vmatrix} = ?$

17. $\begin{vmatrix} 3 & 2 & 4 & 0 \\ 0 & -7 & 0 & 2 \\ 3 & -2 & -1 & 1 \\ 1 & -5 & 0 & -3 \end{vmatrix} = ?$

18. $\begin{vmatrix} 5 & 2 & 4 & -1 \\ 0 & -7 & 0 & 2 \\ 2 & -2 & 1 & 0 \\ 2 & 0 & 0 & 1 \end{vmatrix} = ?$

19. $\begin{vmatrix} 1 & 1 & 4 & 1 \\ 1 & 4 & 0 & 1 \\ 0 & -2 & 1 & 0 \\ 2 & -5 & 0 & 0 \end{vmatrix} = ?$

20. $\begin{vmatrix} 3 & 2 & 0 & 5 \\ -1 & -7 & 0 & 2 \\ 3 & -2 & 3 & 0 \\ 2 & -5 & 2 & 0 \end{vmatrix} = ?$

21. $\begin{vmatrix} 1 & 2 & 4 & -5 \\ 1 & -7 & 0 & 2 \\ 3 & -2 & 1 & 0 \\ 2 & -5 & 0 & 0 \end{vmatrix} = ?$

22. $\begin{vmatrix} 0 & 2 & -2 & 5 \\ 5 & 8 & 0 & 2 \\ 3 & -1 & 1 & 0 \\ 4 & -5 & 0 & 0 \end{vmatrix} = ?$

23. $\begin{vmatrix} 1 & 2 & 2 & 5 \\ 2 & -7 & 0 & 2 \\ 2 & -2 & -3 & 0 \\ 2 & -5 & 0 & 1 \end{vmatrix} = ?$

24. $\begin{vmatrix} 2 & 3 & 4 & 0 \\ 0 & -7 & 0 & 2 \\ 3 & 0 & 1 & 0 \\ 0 & -5 & 0 & 2 \end{vmatrix} = ?$

25. $\begin{vmatrix} 3 & 2 & 3 & 2 \\ -1 & -7 & 0 & 2 \\ 2 & -5 & 1 & 4 \\ -2 & 0 & 0 & 1 \end{vmatrix} = ?$

26. $\begin{vmatrix} 2 & 0 & -1 & 0 \\ 0 & -7 & -3 & -1 \\ 3 & -2 & -2 & 0 \\ 2 & -5 & 0 & 3 \end{vmatrix} = ?$

27. $\begin{vmatrix} 3 & 2 & 4 & 5 \\ -1 & -7 & 0 & 2 \\ 3 & -2 & -1 & 1 \\ 2 & 0 & 0 & -3 \end{vmatrix} = ?$

28. $\begin{vmatrix} 1 & 2 & 4 & -1 \\ 0 & -7 & 0 & 2 \\ 3 & -2 & 1 & 0 \\ 2 & 0 & 0 & 7 \end{vmatrix} = ?$

29. $\begin{vmatrix} 2 & 1 & 4 & 5 \\ 1 & -7 & 0 & 1 \\ 0 & -2 & 1 & 0 \\ 2 & -5 & 0 & -2 \end{vmatrix} = ?$

30. $\begin{vmatrix} 3 & 2 & 0 & -5 \\ -1 & -7 & 0 & -2 \\ 3 & -2 & -2 & 0 \\ 2 & -5 & 2 & 0 \end{vmatrix} = ?$

3-§. Teskari matritsa.

1-ta'rif. Agar kvadrat A matritsa uchun $AB = BA = E$ tenglik o`rinli bo`lsa, u holda B matritsa A matritsa uchun ***teskari matritsa*** deyiladi.

A matritsaga teskari matritsa A^{-1} kabi belgilanadi.

2-ta'rif. Agar A matritsaning determinanti nolga teng bo'lsa, ***xos*** matritsa, noldan farqli bo'lsa, ***xosmas*** matritsa deyiladi.

Teorema 1. A kvadrat matritsa teskari matritsaga ega bo'lishi uchun A matritsa xosmas matritsa bo'lishi zarur va yetarli.

Teskari matritsa

$$A^{-1} = \frac{1}{|A|}\begin{pmatrix} A_{11} & A_{21} & \dots & A_{n1} \\ A_{12} & A_{22} & \dots & A_{n2} \\ \dots & \dots & \dots & \dots \\ A_{1n} & A_{2n} & \dots & A_{nn} \end{pmatrix} \qquad (1)$$

formula bilan topiladi.

Misollar

A matritsaga teskari matritsa A^{-1} ni toping va $\mathrm{AA}^{-1} = \mathrm{A}^{-1}\mathrm{A} = \mathrm{E}$ ekanini tekshiring:

1. $A = \begin{pmatrix} 2 & -1 \\ -7 & 2 \end{pmatrix}$ 2. $A = \begin{pmatrix} 1 & 10 \\ -7 & 2 \end{pmatrix}$

3. $A = \begin{pmatrix} -3 & -1 \\ -5 & 2 \end{pmatrix}$ 4. $A = \begin{pmatrix} 3 & -3 \\ 2 & 4 \end{pmatrix}$

5. $A = \begin{pmatrix} 1 & 0 & -1 \\ 1 & -2 & 3 \\ 4 & 1 & -1 \end{pmatrix}$ 6. $A = \begin{pmatrix} 3 & 2 & -1 \\ 0 & 3 & 0 \\ 1 & 2 & -2 \end{pmatrix}$

7. $A = \begin{pmatrix} 1 & -1 & 5 \\ 2 & 4 & 0 \\ 3 & -3 & -1 \end{pmatrix}$ 8. $A = \begin{pmatrix} 1 & 1 & 3 \\ 0 & -2 & -5 \\ 1 & 4 & 3 \end{pmatrix}$

9. $A = \begin{pmatrix} 1 & -3 & 2 \\ 2 & 1 & 0 \\ 3 & 1 & 2 \end{pmatrix}$ 10. $A = \begin{pmatrix} -1 & 0 & 1 \\ 2 & -2 & 0 \\ 1 & 3 & 4 \end{pmatrix}$

Mustaqil yechish uchun misollar.

A matritsaga teskari matritsa $\mathbf{A}^{-1}$ ni toping va $\mathbf{AA}^{-1} = \mathbf{A}^{-1}\mathbf{A} = \mathbf{E}$ ekanini tekshiring:

1. $A = \begin{pmatrix} 2 & 1 \\ -7 & 2 \end{pmatrix}$

2. $A = \begin{pmatrix} 1 & 0 \\ -7 & 2 \end{pmatrix}$

3. $A = \begin{pmatrix} 3 & -1 \\ -5 & 2 \end{pmatrix}$

4. $A = \begin{pmatrix} 3 & 3 \\ 2 & 4 \end{pmatrix}$

5. $A = \begin{pmatrix} 1 & 2 & -1 \\ 1 & -2 & 3 \\ 4 & 1 & -1 \end{pmatrix}$

6. $A = \begin{pmatrix} 3 & 2 & -1 \\ 7 & 3 & 0 \\ 1 & 2 & -2 \end{pmatrix}$

7. $A = \begin{pmatrix} 1 & -3 & 5 \\ 2 & 4 & 0 \\ 3 & -3 & -1 \end{pmatrix}$

8. $A = \begin{pmatrix} 1 & 1 & 3 \\ 2 & -2 & -5 \\ 1 & 4 & 3 \end{pmatrix}$

9. $A = \begin{pmatrix} 1 & -3 & 2 \\ 2 & 4 & 0 \\ 3 & 1 & 2 \end{pmatrix}$

10. $A = \begin{pmatrix} 1 & 0 & 1 \\ 2 & -2 & 0 \\ 1 & 3 & 4 \end{pmatrix}$

11. $A = \begin{pmatrix} 0 & 1 \\ -7 & 2 \end{pmatrix}$

12. $A = \begin{pmatrix} -5 & 0 \\ -7 & 2 \end{pmatrix}$

13. $A = \begin{pmatrix} 7 & -1 \\ -5 & -2 \end{pmatrix}$

14. $A = \begin{pmatrix} 1 & 3 \\ 2 & 4 \end{pmatrix}$

15. $A = \begin{pmatrix} 1 & -1 & -1 \\ -1 & -2 & 3 \\ 4 & 1 & -1 \end{pmatrix}$

16. $A = \begin{pmatrix} 0 & 2 & -1 \\ 7 & 3 & 0 \\ 1 & 2 & -2 \end{pmatrix}$

17. $A = \begin{pmatrix} 1 & -3 & 5 \\ 2 & 1 & 0 \\ 3 & -3 & -1 \end{pmatrix}$

18. $A = \begin{pmatrix} 1 & 1 & 0 \\ 1 & -2 & -5 \\ 1 & 4 & 3 \end{pmatrix}$

19. $A = \begin{pmatrix} 1 & -3 & 2 \\ -2 & 4 & 0 \\ 3 & 1 & 2 \end{pmatrix}$

20. $A = \begin{pmatrix} 4 & 0 & 1 \\ 2 & -2 & 0 \\ 1 & 3 & 4 \end{pmatrix}$

21. $A = \begin{pmatrix} -6 & 1 \\ -7 & 2 \end{pmatrix}$

22. $A = \begin{pmatrix} 9 & 0 \\ -7 & 2 \end{pmatrix}$

23. $A = \begin{pmatrix} 8 & -1 \\ -5 & 2 \end{pmatrix}$

24. $A = \begin{pmatrix} 3 & -3 \\ 2 & 4 \end{pmatrix}$

25. $A = \begin{pmatrix} -1 & 0 & -1 \\ 1 & -2 & 3 \\ 4 & 1 & -1 \end{pmatrix}$

26. $A = \begin{pmatrix} 3 & -2 & -1 \\ 1 & 3 & 0 \\ 1 & 2 & -2 \end{pmatrix}$

27. $A = \begin{pmatrix} 1 & -3 & 5 \\ 2 & -4 & 0 \\ 3 & -3 & -1 \end{pmatrix}$

28. $A = \begin{pmatrix} 0 & 1 & 3 \\ -2 & -2 & -5 \\ 1 & 4 & 3 \end{pmatrix}$

29. $A = \begin{pmatrix} 0 & -3 & 2 \\ 2 & 4 & 0 \\ -3 & 1 & 2 \end{pmatrix}$

30. $A = \begin{pmatrix} -2 & 0 & 1 \\ 2 & -2 & 0 \\ 1 & 3 & -4 \end{pmatrix}$

4-§. Matritsaning rangi.

1-ta’rif. A matritsaning k-tartibli ***minori*** deb, bu matritsadan ixtiyoriy k ta satr va k ta ustunni ajratishdan hosil bo’lgan kvadrat matritsaning determinantiga aytiladi.

2-ta’rif. A Matritsaning ***rangi*** deb, uning noldan farqli minorlarining eng katta tartibiga yoki matritsaning chiziqli bog`lanmagan ustun yoki satrlarining eng katta soniga aytiladi va **rangA** kabi belgilanadi.

3-ta’rif. Quyidagi almashtirishlar, chiziqli almashtirish deb ataladi:

a) ixtiyoriy ikkita satr (ustun) elementlarini o’rnini almashtirish;

b) ixtiyoriy satr (ustun) elementlarini biror songa ko’paytirib, boshqa satr (ustun) ning mos elementlariga qo’shish;

c) faqat nollardan iborat satr (ustun) ni o’chirish;

CHiziqli almashtirishlar matritsa rangini o’zgartirmaydi. SHu sababli, elementar almashtirishlardan foydalanib, matritsaning bosh diagonal elementlaridan (kvadrat matritsa bo’lishi shart emas) pastdagi barcha elementlar nolga keltiriladi. Bu holda matritsaning rangi bosh diagonaldagi noldan farqli elementlar soniga teng bo’ladi.

Misollar.Berilgan A matritsaning rangini toping:

1. $A = \begin{pmatrix} 1 & 2 \\ 4 & 3 \end{pmatrix}$

2. $A = \begin{pmatrix} 1 & -3 \\ -1 & 3 \end{pmatrix}$

3. $A = \begin{pmatrix} 0 & 1 \\ 2 & 3 \end{pmatrix}$

4. $A = \begin{pmatrix} 2 & 1 \\ -2 & -1 \end{pmatrix}$

5. $A = \begin{pmatrix} 1 & 2 & -1 \\ -2 & 0 & 3 \\ 3 & 1 & 0 \end{pmatrix}$

6. $A = \begin{pmatrix} 1 & 2 & 3 \\ -2 & 0 & 3 \\ 1 & -2 & -1 \end{pmatrix}$

7. $A = \begin{pmatrix} 0 & 2 & -1 \\ -2 & 0 & 3 \\ 5 & 1 & 0 \end{pmatrix}$

8. $A = \begin{pmatrix} 3 & 4 & 1 \\ 0 & 1 & 2 \\ 1 & 3 & 4 \end{pmatrix}$

9. $A = \begin{pmatrix} 2 & -2 & -4 \\ -2 & 0 & 2 \\ 1 & -2 & 1 \end{pmatrix}$

10. $A = \begin{pmatrix} 0 & 4 & 0 \\ -2 & 0 & 3 \\ 0 & -2 & -6 \end{pmatrix}$

11. $A=\begin{pmatrix}1 & 4 & -3 & 6\\ 2 & 5 & 1 & -2\\ 17 & -10 & 20 & 0\end{pmatrix}$ 12. $A=\begin{pmatrix}2 & 1 & -2 & 3\\ -3 & 0 & -1 & 1\\ 5 & 1 & -3 & 2;\end{pmatrix}$

13. $A=\begin{pmatrix}1 & -3 & -4 & 1 & 1\\ 5 & 0 & -2 & 8 & 3\\ -2 & -1 & 0 & -5 & 0\end{pmatrix}$ 14. $A=\begin{pmatrix}1 & 3 & -1 & 2 & 0\\ 2 & 0 & -8 & -5 & 6\\ 1 & 4 & 5 & -1 & 0\end{pmatrix}$

15. $A=\begin{pmatrix}0 & 1 & 4 & -2 & 3\\ 1 & 2 & 0 & -1 & 0\\ -1 & -3 & 0 & 3 & -3\\ 1 & 2 & 3 & 4 & 0\end{pmatrix}$ 16. $A=\begin{pmatrix}1 & 0 & 1 & -2 & 3\\ 1 & 2 & 3 & -1 & 0\\ -1 & 0 & -7 & 0 & -3\\ 0 & 1 & 4 & 1 & 3\end{pmatrix}$

17. $A=\begin{pmatrix}-1 & 1 & 2 & 0\\ 1 & 0 & -1 & 2\\ 0 & 1 & 1 & 2\\ 2 & 2 & 0 & 1\end{pmatrix}$ 18. $A=\begin{pmatrix}0 & -1 & 0 & 3\\ 2 & 1 & 3 & 1\\ 0 & 1 & 1 & 0\\ 2 & -4 & -2 & 1\end{pmatrix}$

19. $A=\begin{pmatrix}0 & -1 & 0\\ -3 & 1 & 3\\ 1 & 0 & 3\\ -5 & 1 & -3\end{pmatrix}$ 20. $A=\begin{pmatrix}1 & 2 & 0\\ -2 & -3 & -4\\ 0 & 1 & 3\\ 0 & 2 & 6\end{pmatrix}$

Mustaqil yechish uchun misollar.

Berilgan A matritsaning rangini toping:

1. $A=\begin{pmatrix}1 & 2 & 3\\ -2 & 0 & 3\\ 3 & 1 & 0\end{pmatrix}$ 6. $A=\begin{pmatrix}1 & 2 & 3\\ -2 & 0 & 3\\ 1 & -2 & -6\end{pmatrix}$

2. $A=\begin{pmatrix}1 & 2 & 3\\ -2 & 0 & 3\\ 1 & -2 & -6\end{pmatrix}$ 7. $A=\begin{pmatrix}0 & 2 & 1\\ -2 & 0 & 3\\ 5 & 1 & 0\end{pmatrix}$

3. $A=\begin{pmatrix}0 & 2 & 1\\ -2 & 0 & 3\\ 5 & 1 & 0\end{pmatrix}$ 8. $A=\begin{pmatrix}3 & 4 & 1\\ 0 & -1 & 2\\ 1 & 3 & 4\end{pmatrix}$

4. $A=\begin{pmatrix}3 & 4 & 1\\ 0 & -1 & 2\\ 1 & 3 & 4\end{pmatrix}$ 9. $A=\begin{pmatrix}2 & 2 & -4\\ -2 & 0 & 2\\ 1 & -2 & 1\end{pmatrix}$

5. $A=\begin{pmatrix}1 & 2 & 3\\ -2 & 0 & 3\\ 3 & 1 & 0\end{pmatrix}$ 10. $A=\begin{pmatrix}3 & 4 & 0\\ -2 & 0 & 3\\ 0 & -2 & -6\end{pmatrix}$

11. $A = \begin{pmatrix} 1 & 4 & -3 & 61 \\ 2 & 5 & 1 & -23 \\ 17 & -1 & 20 & 0 \end{pmatrix}$

12. $A = \begin{pmatrix} 2 & 1 & -2 & 3 \\ -3 & 0 & 1 & 1 \\ 5 & 1 & -3 & 2; \end{pmatrix}$

13. $A = \begin{pmatrix} 1 & -3 & -4 & 1 & 1 \\ 5 & 0 & -2 & 0 & 3 \\ 0 & -1 & -10 & -5 & 0 \end{pmatrix}$

14. $A = \begin{pmatrix} 1 & 0 & -1 & 2 & 2 \\ 2 & 5 & 0 & -5 & 0 \\ 1 & 0 & 5 & -1 & 0 \end{pmatrix}$

15. $A = \begin{pmatrix} 0 & 1 & 0 & -2 & 3 \\ 1 & 2 & 3 & -1 & 0 \\ 0 & -3 & 0 & 3 & -3 \\ 1 & 2 & 3 & 4 & 0 \end{pmatrix}$

16. $A = \begin{pmatrix} 1 & 0 & 4 & -2 & 3 \\ 1 & 2 & 0 & -1 & 0 \\ -1 & -3 & -7 & 0 & -3 \\ 0 & 1 & 4 & 1 & 3 \end{pmatrix}$

17. $A = \begin{pmatrix} -1 & 1 & 2 & 0 \\ 1 & 0 & -1 & 2 \\ 0 & 1 & 1 & 2 \\ 2 & 2 & 0 & 8 \end{pmatrix}$

18. $A = \begin{pmatrix} 1 & -1 & 0 & 3 \\ 2 & 1 & 3 & 1 \\ 0 & 1 & 1 & 0 \\ 2 & -4 & -2 & 1 \end{pmatrix}$

19. $A = \begin{pmatrix} 4 & -1 & 0 \\ -3 & 1 & 3 \\ 1 & 0 & 3 \\ -5 & 1 & -3 \end{pmatrix}$

20. $A = \begin{pmatrix} 1 & 2 & 3 \\ -2 & -3 & -4 \\ 0 & 1 & 3 \\ 0 & 2 & 6 \end{pmatrix}$

21. $A = \begin{pmatrix} 1 & 2 & 1 \\ -2 & 0 & 3 \\ 3 & 1 & 0 \end{pmatrix}$

22. $A = \begin{pmatrix} -1 & 2 & -3 \\ -2 & 0 & 3 \\ 1 & -2 & -6 \end{pmatrix}$

23. $A = \begin{pmatrix} 0 & 2 & 1 \\ -2 & 0 & -3 \\ 5 & 1 & 0 \end{pmatrix}$

24. $A = \begin{pmatrix} 3 & 7 & 1 \\ 0 & -1 & 2 \\ 1 & 3 & 4 \end{pmatrix}$

25. $A = \begin{pmatrix} 1 & -2 & 3 \\ -2 & 0 & 3 \\ 3 & 1 & 0 \end{pmatrix}$

26. $A = \begin{pmatrix} 1 & 2 & 3 \\ -2 & 0 & 11 \\ 1 & -2 & -6 \end{pmatrix}$

27. $A = \begin{pmatrix} 0 & 2 & 1 \\ -2 & 10 & 3 \\ 5 & 1 & 0 \end{pmatrix}$

28. $A = \begin{pmatrix} 3 & 4 & 1 \\ 6 & -1 & 2 \\ 1 & 3 & 1 \end{pmatrix}$

29. $A = \begin{pmatrix} 1 & 2 & -4 \\ -2 & 0 & 2 \\ 5 & -2 & 1 \end{pmatrix}$

30. $A = \begin{pmatrix} 1 & 4 & 0 \\ -2 & 0 & 3 \\ 2 & -2 & -6 \end{pmatrix}$

CHIZIQLI TENGLAMALAR SISTEMASI

1-§.Chiziqli tenglamalar sistemasi.

1-ta'rif. n noma'lumli m ta ***chiziqli tenglamalar sistemasi*** deb,

$$\begin{cases} a_{11}x_1 + a_{12}x_2 + \cdots + a_{1n}x_n = b_1 \\ a_{21}x_1 + a_{22}x_2 + \cdots + a_{2n}x_n = b_2 \\ \ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots \\ a_{m1}x_1 + a_{m2}x_2 + \cdots + a_{mn}x_n = b_m \end{cases} \qquad (1)$$

ga aytiladi. Bu yerda a_{ij} (i - satr, j - ustun, $i = 1,m; j = 1,n$), b_i ($i = 1,m$) lar berilgan sonlar bo`lib, $a_{ij}$ lar sistemaning koeffitsiyentlari, $b_i$ ($i = 1,m$ ) - lar esa ozod hadlar, $x_i$ ($i = 1,m$ ) - lar ***o`zgaruvchilar yoki noma'lumlar*** deyiladi va ular ixtiyoriy qiymatlar qabul qiladilar.

2-**ta'rif**. Agar $(\alpha_1, \alpha_2, \ldots, \alpha_n)$ sonlarni $(x_1, x_2, \ldots, x_n)$ lar o`rniga mos ravishda qo`yganimizda (1) sistemaning har bir tenglamasi to`g`ri sonli tenglikka aylansa, u holda $(\alpha_1, \alpha_2, \ldots, \alpha_n)$ vektor berilgan sistemaning ***yechimi*** deyiladi.

3-**ta'rif**. Agar (1) sistemaning yechimi bo`lsa, u ***birgalikda;*** yechimi bo`lmasa, ***birgalikda emas;*** faqat bitta yechimi bo`lsa, u ***aniq sistema;*** cheksiz ko`p yechimi bo`lsa, u ***aniqmas sistema*** deyiladi.

4-ta'rif. Agar b_i ($i = 1,m$) ozod hadlarning kamida bittasi noldan farqli bo'lsa***, bir jinsli bo'lmagan tenglamalar sistema*** deyiladi.

5-**ta'rif**. Agar b_i ($i = 1,m$) ozod hadlarning barchasi nolga teng, ya'ni

$$\begin{cases} a_{11}x_1 + a_{12}x_2 + \cdots + a_{1n}x_n = 0 \\ a_{21}x_1 + a_{22}x_2 + \cdots + a_{2n}x_n = 0 \\ \ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots \\ a_{m1}x_1 + a_{m2}x_2 + \cdots + a_{mn}x_n = 0 \end{cases} \qquad (2)$$

bo'lsa***, bir jinsli tenglamalar sistemasi*** deyiladi.

Teorema (Kroneker – Kapelli teoremasi)

(1) sistema birgalikda bulishi uchun uning asosiy A va kengaytirilgan B matritsalarining ranglari teng bo`lishi zarur va yetarlidir.

Bu yerda, $A = \begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} \ldots & a_{1n} \\ a_{21} & a_{22} \ldots & a_{2n} \\ \ldots & \ldots & \ldots \\ a_{m1} & a_{m2} \ldots & a_{mn} \end{pmatrix}$, $B = \begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} \ldots & a_{1n} & b_1 \\ a_{21} & a_{22} \ldots & a_{2n} & b_2 \\ \ldots & \ldots & \ldots & \\ a_{m1} & a_{m2} \ldots & a_{mn} & b_m \end{pmatrix}$.

(2) sistema $x_1 = x_2 = \cdots = x_n = 0$ yechimga ega. Demak, har qachon birgalikda bo`ladi. Yuqoridagi yechim - trivial yechim bo`lib, amaliyot uchun notrival yechimlarning mavjud bo`lishi muhim ahamiyatga ega.

Teorema. Agar (2) sistemaning rangi r uchun $0 < r < m$ tengsizlik o`rinli bo`lsa, u holda sistema notrival yechimga ega bo`ladi.

2-§.Chiziqli tenglamalar sistemasini yechish.

1.*Kramer usuli.*

Ikki noma'lumli ikkita chiziqli tenglamalar sistemasi:

$$\begin{cases} a_{11}x_1 + a_{12}x_2 = b_1 \\ a_{21}x_1 + a_{22}x_2 = b_2 \end{cases}$$

Uning asosiy determinant $\Delta = \begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} \\ a_{21} & a_{22} \end{vmatrix} \neq 0$ bo`lganda yagona yechimga ega va Kramer qoidasi bo`yicha quyidagi formulalar bilan hisiblanadi:

$x_1 = \frac{\Delta_{x_1}}{\Delta}$, $x_2 = \frac{\Delta_{x_2}}{\Delta}$ bu yerda $\Delta_{x_1} = \begin{vmatrix} b_1 & a_{12} \\ b_2 & a_{22} \end{vmatrix}$, $\Delta_{x_2} = \begin{bmatrix} a_{11} & b_1 \\ a_{21} & b_2 \end{bmatrix}$ lar yordamchi determinantlar deyiladi.

Agar $\Delta = 0$ va shu bilan birga Δ_{x_1} , Δ_{x_2} lardan hech bo`lmasa bittasi noldan farqli bo'lsa, sistema yechimga ega bo'lmaydi.

Agar $\Delta = \Delta_{x_1} = \Delta_{x_2} = 0$ bo`lsa, u holda sistema cheksiz ko`p yechimga ega bo`ladi.

Uch noma'lumli uchta chiziqli tenglamalar sistemasi berilgan;

$$\begin{cases} a_{11}x_1 + a_{12}x_2 + a_{13}x_3 = b_1 \\ a_{21}x_1 + a_{22}x_2 + a_{23}x_3 = b_2 \\ a_{31}x_1 + a_{32}x_2 + a_{33}x_3 = b_3 \end{cases}$$

Uning asosiy determinanti

$$\Delta = \begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} & a_{13} \\ a_{21} & a_{22} & a_{23} \\ a_{31} & a_{32} & a_{33} \end{vmatrix} \neq 0$$

bo'lganda yagona yechimga ega bo'lib, u Kramer formulalari orqali quyidagicha

$$x_1 = \frac{\Delta_{x_1}}{\Delta}, x_2 = \frac{\Delta_{x_2}}{\Delta}, x_3 = \frac{\Delta_{x_3}}{\Delta}.$$

hisoblanadi.

Bu yerda

$$\Delta_{x_1}=\begin{vmatrix} b_1 & a_{12} & a_{13} \\ b_2 & a_{22} & a_{23} \\ b_3 & a_{32} & a_{33} \end{vmatrix};\quad \Delta_{x_2}=\begin{vmatrix} a_{11} & b_1 & a_{13} \\ a_{21} & b_2 & a_{23} \\ a_{31} & b_3 & a_{33} \end{vmatrix};\quad \Delta_{x_3}=\begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} & b_1 \\ a_{21} & a_{22} & b_2 \\ a_{31} & a_{32} & b_3 \end{vmatrix}$$

Agar $\Delta = 0$ va shu bilan birga $\Delta_{x_1}, \Delta_{x_2}, \Delta_{x_3}$ lardan hech bo`lmaganda bittasi noldan farqli bo`lsa, sistema yechimga ega bo'lmaydi.

Agar $\Delta = \Delta_{x_1} = \Delta_{x_2} = \Delta_{x_3} = 0$ bo`lsa, u holda sistema cheksiz ko`p yechimga ega bo`ladi.

2.Gauss usuli.

n ta noma'lumli n ta chiziqli tenglamalar sistemasini n ning yetarlicha katta qiymatlarida Kramer qoidasi bilan yechish bir nechta yuqori tartibli determinantlarni hisoblashni talab etadi. Shuning uchun ularni Gauss usulidan foydalanib yechish maqsadga muvofiq. Bu usulda noma'lumlar ketma-ket yo`qotilib, sistema uchburchak shaklga keltiriladi. Agar sistema uchburchaksimon shaklga kelsa, u yagona yechimga ega bo`ladi va uning noma'lumlari oxirgi tenglamadan boshlab topib boriladi. Sistema cheksiz ko`p yechimga ega bo`lsa, noma'lumlar ketma-ket yo`qotilgach, u trapetsiyasimon shaklga keladi.

CHiziqli almashtirishlar bajarilayotganda;

a) Ayrim tenglamalar $0 = 0$ ko`rinishga kelib qolsa, ular tashlab yuboriladi. Bu hol sistemaning rangi *m* dan kichik ekanligini bildiradi;

b) Biror tenglama $0 = a\ (a \neq 0)$ ko`rinishga kelib qolsa, bu hol tenglama birgalikda emasligini bildiradi. U vaqtda barcha hisoblar to`xtatilib "sistema birgalikda emas" deb javob yoziladi.

3.Matritsalar usuli.

n ta noma'lumli n ta chiziqli tenlamalar sistemasi berilgan:

$$\begin{cases} a_{11}x_1 + a_{12}x_2 + \cdots + a_{1n}x_n = b_1 \\ a_{21}x_1 + a_{22}x_2 + \cdots + a_{2n}x_n = b_2 \\ \dots\dots\dots\dots\dots\dots\dots\dots\dots\dots\dots\dots\dots\dots\dots \\ a_{n1}x_1 + a_{n2}x_2 + \cdots + a_{nn}x_n = b_n \end{cases}$$

Bu yerda $A = \begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} \cdots & a_{1n} \\ a_{12} & a_{22} \cdots & a_{2n} \\ a_{1n} & a_{n2} \cdots & a_{nn} \end{pmatrix}$, $B = \begin{pmatrix} b_1 \\ b_2 \\ \vdots \\ b_n \end{pmatrix}$, $X = \begin{pmatrix} x_1 \\ x_2 \\ \vdots \\ x_n \end{pmatrix}$.

Berilgan chiziqli tenglamalar sistemasini matritsa ko`rinishida

$$A \cdot X = B$$

kabi yozish mumkin.

Agar A maxsusmas matritsa, ya`ni $detA \neq 0$ bo`lsa, u holda bu sistemaning matritsa yechimi ushbu ko`rinishga ega bo`ladi: $X = A^{-1} \cdot B$.

Agar $rangA = n$ bo'lsa, sistemaning determinant noldan farqli bo'lib , u yagona yechimga ega bo'ladi; agar $rangA < n$ bo'lsa , u cheksiz ko'p yechimga ega bo'ladi .

Agar barcha b ozod hadlar nolga teng bo'lsa , tenglamalar sistemasi ***bir jinsli*** deyiladi. Bunday tenglamalar sistemasida har doim $rangA = rangB$, shuning uchun bir jinsli sistema birgalikda bo'ladi. Bir jinsli tenglamalar sistemasini $x_1 = 0,\ x_2 = 0, \dots, x_n = 0$ qiymatlar qanoatlantiradi, lekin A matritsaning rangi noma'lumlar soni n dan kichik bo'lganda uning determinanti nolga teng bo'lib , sistema notrivial yechimga ega bo'ladi.

Misollar.

Quyidagi chiziqli tenglamalar sistemasini Kramer formulalaridan foydalanib yeching:

1. $\begin{cases} 3x_1 - 5x_2 + 3x_3 = -3 \\ x_1 + 2x_2 + x_3 = -1 \\ x_1 - 7x_2 - 2x_3 = 5 \end{cases}$ j:(1;0;-2)

2. $\begin{cases} 2x_1 + 3x_2 + 4x_3 = 8 \\ 4x_2 + 11x_3 = 8 \\ 7x_1 - 5x_2 = -3 \end{cases}$ j:(1;2;0)

3. $\begin{cases} 2x_1 - x_2 + 5x_3 = 10 \\ 5x_1 + 2x_2 - x_3 = 2{,}5 \\ 4x_1 - x_3 = 0 \end{cases}$ $j: (\frac{1}{2}; 1; 2)$

4. $\begin{cases} x_1 - 4x_2 - 2x_3 = 4 \\ 3x_1 - 5x_2 - 6x_3 = 19 \\ 3x_1 + x_2 + x_3 = 11 \end{cases}$ j:(4;1;-2)

5. $\begin{cases} 2x_1 - 3x_2 + x_3 = 7 \\ x_1 + 2x_2 - x_3 = 2 \\ x_1 + 4x_2 - 2x_3 = 5 \end{cases}$ j:(-1;2;1)

6. $\begin{cases} x_1 + 4x_2 - 3x_3 = 10 \\ 2x_1 + x_2 - x_3 = 3 \\ x_1 - 3x_2 + 2x_3 = -8 \end{cases}$ j:∅

7. $\begin{cases} x_1 + x_2 - 3x_3 = 10 \\ 2x_1 + x_2 - x_3 = 3 \\ x_1 + 2x_3 = -7 \end{cases}$ j:yechim cheksiz ko'p.

8. $\begin{cases} x_1 + 4x_2 - 3x_3 = 10 \\ x_1 + x_2 - x_3 = 3 \\ 3 - 2x_3 = 4 \end{cases}$ j:∅

9. $\begin{cases} 2x_1 + 4x_2 - x_3 = 1 \\ x_1 + x_2 - 2x_3 = 3 \\ x_1 + 3x_2 + x_3 = -2 \end{cases}$ j:yechim cheksiz ko'p.

10. $\begin{cases} -x_1 + x_2 - 2x_3 = -2 \\ x_1 + 2x_2 - x_3 = 1 \\ 2x_1 + x_2 - x_3 = 5 \end{cases}$ j:∅

11. $\begin{cases} x_1 + 4x_2 - 3x_3 = 10 \\ 2x_1 + x_2 - x_3 = 3 \\ 4x_1 + 2x_2 + 5x_3 = -8 \end{cases}$ j:(0;1;-2)

12. $\begin{cases} x_1 - 3x_2 = 5 \\ 4x_1 + 3x_3 = 8 \\ 5x_1 + 2x_2 - 4x_3 = 8 \end{cases}$ j:(2;-1;0)

13. $\begin{cases} 2x_1 - x_2 + 4x_3 = -3 \\ x_1 + x_2 - 4x_3 = 12 \\ x_1 + 4x_2 - x_3 = 9 \end{cases}$ j:(3;1;-2)

14. $\begin{cases} x_1 - 3x_2 + x_3 = 2 \\ 2x_1 + x_2 - 3x_3 = 9 \\ 4x_1 - x_2 = 12 \end{cases}$ j:(3;0;-1)

15. $\begin{cases} x_1 - 3x_2 - x_3 = 2 \\ 2x_1 + x_2 + x_3 = 0 \\ 3x_1 - 2x_2 = 12 \end{cases}$ j: ∅

Quyidagi tenglamalar sistemasini Gauss usuli bilan yeching:

